

QASDDAN ODAM O'LDIRISHNING IJTIMOY XAVFLILIGI VA JAVOBGARLIK MASALASI



Niyozova Salomat Saparovna

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi,
kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrası
professori,

Annotatsiya. Maqolada qasddan odam o'ldirishning ijtimoiy xavfliligi va javobgarlik masalasi tahlil etilgan, uning o'ziga xos xususiyatlari va dolzarbligi ham ochib berilgan. Jumladan, qasddan odam o'ldirganlik uchun javobgarlikning jinoyat-huquqiy jihatlariga doir O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligini takomillashtirish zaruratining vujudga kelganligi, qasddan odam o'ldirganlik uchun javobgarlikning jinoyat-huquqiy jihatlar bilan bog'liq masalalarning ilmiy va nazariy jihatdan tadqiq etish lozimligi, bunday jinoyat uchun javobgarlik va jazo tayinlashda mavjud muammolarni aniqlash va Jinoyat kodeksini takomillashtirishga doir takliflar va tavsiyalar o'z ifodasini topgan.

Kalit so'zlar: aybdor, boshqa shaxslar, jazo, javobgarlik, jinoyat, qilmish, ijtimoiy xavflilik, odam o'ldirish, qasd, hayotga qarshi.

ОБЩЕСТВЕННАЯ ОПАСНОСТЬ УМЫШЛЕННОГО УБИЙСТВА И ВОПРОСЫ УГОЛОВНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы общественной опасности умышленного убийства и привлечения к ответственности за данное преступление. Раскрываются его характерные особенности и актуальность. В частности, подчеркивается необходимость совершенствования уголовного законодательства Республики Узбекистан в части, касающейся ответственности за умышленное убийство, а также научного и теоретического осмысления проблем, связанных с уголовно-правовыми аспектами привлечения к ответственности за данное деяние. Изложены предложения и рекомендации по выявлению существующих проблем в назначении наказания за умышленное убийство и совершенствованию соответствующих норм Уголовного кодекса.

Ключевые слова: виновный, другие лица, наказание, ответственность, преступление, деяние, общественная опасность, убийство, умысел, преступления против жизни.

THE SOCIAL DANGER OF INTENTIONAL HOMICIDE AND THE ISSUE OF CRIMINAL LIABILITY

Abstract: This article analyzes the social danger of intentional homicide and the issue of holding individuals criminally liable for such an act. It also explores the specific characteristics and current relevance of this crime. In particular, the article highlights the need to improve the criminal legislation of the Republic of Uzbekistan concerning liability for intentional homicide, the importance of scientific and theoretical analysis of related criminal law issues, and the necessity of identifying existing problems in sentencing for intentional homicide. The author also presents proposals and recommendations for improving the provisions of the Criminal Code.

Keywords: offender, other persons, punishment, liability, crime, social danger, homicide, intent, against life.

Har qanday davlatning eng muhim vazifalaridan biri o'z fuqarolari to'g'risida g'amxo'rlik qilishdir. Binobarin, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson

omili, uning shaxsiy huquq va erkinliklari mustahkamlangan. Konstitutsiya normalarida har qanday holatdan qat'i nazar, shaxsning qonuniy huquq va manfaatlari kafolatlangan va himoya qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmonidan kelib chiqib, "Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasining 16-maqsadi jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning sodir etilishiga sabab bo'lgan shart-sharoitlarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etishning samarali tizimini yaratishdan" [1] iborat bo'lib, bu ham, o'z navbatida, qasddan odam o'ldirish jinoyati uchun javobgarlik masalasining nazariy-huquqiy va amaliy jihatlarini o'rganishni taqozo etadi.

Konstitutsiyaning "Shaxsiy huquq va erkinliklar", "Siyosiy huquqlar", "Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar" deb nomlangan bo'limlarida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilishning huquqiy bazasi o'z aksini topgan. "Insonning huquq va erkinliklarini ta'minlash davlatning oliy maqsadidir.

Davlat inson hamda fuqaroning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi", deb ta'kidlanadi Konstitutsiyaning 54-moddasida.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 3, 4, 5-moddalarida, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 6, 7, 9, 10, 11-moddalarida insonning yashash huquqi, qadr-qimmat, ozodligi va xavfsizligi, sha'ni va obro'ini himoya qilish kabi huquqlari mustahkamlangan. Bu xalqaro huquqiy me'yorlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ham asosini tashkil qiladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, shaxsning huquq va erkinliklari turli huquq sohaslarining normalari bilan himoya qilinadi, lekin jinoyat qonunida fuqarolarning huquq va erkinliklari buzilganligi uchun jinoiy javobgarlik belgilangan bo'lib, huquqning bu sohasi ana shu javobgarlikni qo'llash orqali fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qiladi.

Jinoyat kodeksining "Shaxsga qarshi jinoyatlar" bo'limida hayotga; sog'liqqa qarshi; hayot yoki sog'liq uchun xavfli; jinsiy erkinlikka; oilaga, yoshlarga va axloqqa; shaxsning ozodligi, sha'ni, qadr-qimmatiga; fuqarolarning konstitutsiyaviy

huquq va erkinliklariga qarshi qaratilgan jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan bo'lib, bu jinoyatlar jamiyat uchun jiddiy xavf tug'diradi. Darhaqiqat, insonning hayoti va sog'ligi bebaho ne'mat hisoblanadi va uning bu ne'matlardan mahrum etilishi yoki ularga shikast yetkazilishi jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Inson yashar ekan, hayotdan, uning ne'matlaridan bahramand bo'lib yashashga intiladi, hayotdan mahrum qilingan shaxsning o'rnini hech narsa bilan to'ldirib bo'lmaydi. Insonning sog'lig'iga zarar yetkazilishi unga jismoniy, axloqiy, ruhiy azob berib, hayotiy faoliyatini cheklab qo'yadi. Jinoyatchi tomonidan insonning boshqa huquq va erkinliklari buzilishining shaxs uchun ijtimoiy xavfi hayotdan mahrum etishdan kam bo'lmagan xavfni tug'diradi.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat kodeksi Maxsus qismining birinchi bo'limida "Shaxsga qarshi jinoyatlar", aynan birinchi bobida "Hayotga qarshi qaratilgan jinoyatlar"ning mustahkamlanishi yana bir bor insonning yashash huquqi kafolatlanganligi, uning barcha qadriyatlardan ustun ekanligidan dalolat beradi.

Qasddan odam o'ldirish shaxsga qarshi qaratilgan jinoyat turi hisoblanadi. Uning o'ziga xos ijtimoiy xavfliligi eng ulug' ne'mat bo'lmish hayotdan insonni mahrum etadi va shu bilan jamiyatga juda ham katta ziyon yetkazadi.

Qasddan odam o'ldirganlik uchun javobgarlik masalasining nazariy va amaliy qoidalarini o'rganib shunday xulosaga keldikki, uning dolzarbligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

birinchidan, qasddan odam o'ldirganlik uchun javobgarlikning jinoyat-huquqiy jihatlariga doir O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligini takomillashtirish zarurati vujudga kelganligi;

ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasida mazkur masalani ilmiy o'rganishning nihoyatda zarurligi, bu sohada ko'plab islohotlar amalga oshirilayotganligiga qaramay, shu kungacha ushbu mavzuning jinoyat-huquqiy jihatlariga bag'ishlangan kompleks monografik va ilmiy tadqiqotlar olib borilmagan;

uchinchidan, qasddan odam o'ldirganlik uchun javobgarlikning jinoyat-huquqiy jihatlariga

bilan bog'liq masalalarni ilmiy va nazariy jihatdan tadqiq etish;

to'rtinchidan, qasddan odam o'ldirganlik uchun javobgarlik va jazo tayinlashda mavjud muammolarni aniqlash va Jinoyat kodeksini takomillashtirishga doir takliflar va tavsiyalar berish;

beshinchidan, og'irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirganlik uchun javobgarlikka doir amaliyotda mavjud bo'lgan kamchiliklarni bartaraf etishdan iboratdir.

Shaxsga qarshi jinoyatlarning xavflilik darajasi yuqoriligi bois Jinoyat kodeksi Maxsus qismining birinchi bo'limi "Shaxsga qarshi jinoyatlar" deb nomlanadi. Shaxsga faqat yuqorida aytilgan jinoyatlar sodir etilganida emas, balki boshqa obyektlarga tajovuz qilinganida, masalan, bosqinchilik, talonchilik va boshqa jinoyatlar sodir etilgan hollarda ham zarar yetkazadi.

Shaxsga qarshi jinoyatlar tahlil qilinganida bu qilmishni sodir etgan aybdorning harakatlari aynan shaxsga zarar yetkazishga qaratilganligiga e'tibor beriladi. Qasddan odam o'ldirish bilan sodir etilgan jinoyat jamiyatimizda fuqarolarimizni deviant xulq-atvorini o'zlarida shakllanish jarayonini tezlashtirib va doimiy xulq-atvorga aylantirib olishida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksidagi shaxsga qarshi jinoyatlar qatorida qasddan odam o'ldirish jinoyati alohida ahamiyat kasb etadi.

Qasddan odam o'ldirish jinoyati tushunchasini yoritishdan avval, odam o'ldirish jinoyatiga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq.

"Qotil" so'zi arab tilidan "odam o'ldiruvchi" yoki "o'ldirgan kishi", "qotillik" esa "odamni o'ldirish" ma'nosini anglatadi. Shu bilan birga, bir qator olimlar tomonidan "qotillik"ka faqatgina qasddan sodir etilgan odam o'ldirish jinoyatlarini kiritish lozimligi ta'kidlanadi.

Ayrim olimlar ehtiyotsizlik natijasida o'lim kelib chiqishini, qotillik natijasida sodir etiladigan jinoyatlar toifasidan olib tashlash lozim, degan fikr bildirgan.

Ushbu holat yuzasidan o'zbek olimlari ham o'z nuqtai nazarga ega bo'lib, unga ko'ra "qotillik

jinoyati" tushunchasini tahlil qilishda ehtiyotsizlik natijasida odamni hayotidan mahrum qilish tushunchasini nazariyaga kiritmaslik lozim, bundan tashqari "qotillik" bilan "o'zini o'zi o'ldirish" tushunchasini qat'iy chegaralash kerak, chunki qotillik – bu boshqa shaxsni hayotidan mahrum qilish [2].

Ma'lumki, jinoyat huquqi nazariyasida biror-bir qilmishda jinoyat belgilari, ya'ni qilmishning ijtimoiy xavfliligi, aybning mavjudligi, qilmishning huquqqa xilofligi va jazoga sazovorligi [3] mavjud bo'lsa, u jinoyat deb topiladi. Xuddi shu singari odam o'ldirishga ko'pchilik olimlar jinoyat sifatida ta'rif berar ekanlar jinoyat huquqida belgilab berilgan, barcha jinoyatlar uchun xos bo'lgan belgilardan foydalanadilar.

M.D.Shargorodskiyning fikricha, "Odam o'ldirish – bu boshqa odamni hayotdan noqonuniy mahrum qilish" [4]. S.V.Borodin esa, "Odam o'ldirish – bu boshqa odamning hayotiga tajovuz qiluvchi va uning o'limini keltirib chiqaruvchi Jinoyat kodeksining Maxsus qismi moddalarida ko'zda tutilgan, aybli harakatlar tushuniladi», deb ta'kidlaydi [5].

M.H.Rustamboyev "Odam o'ldirish – bu qasddan, huquqqa xilof ravishda boshqa odamning hayotidan mahrum qilish yoki ehtiyotsizlikdan uning o'limini keltirib chiqarishdir" [6], degan fikrni bildiradi. Shuningdek, huquqiy adabiyotlarda "Odam o'ldirish – bu jinoiy javobgarlik uchun asos bo'luvchi, g'ayriqonuniy (g'ayrihuquqiy) qasddan yoki ehtiyotsizlikdan boshqa odamning hayotidan mahrum qilishdir" [7], degan fikrlar ham mavjud.

Yuqoridagi olimlar odam o'ldirishga o'z nuqtai nazarlaridan ta'rif bergan bo'lsalarda, ularning yondashuvlarini umumlashtirib, odam o'ldirish masalasida muayyan bir xulosaga kelish mumkin.

Demak, "*Odam o'ldirish – bu jinoiy javobgarlik uchun asos bo'luvchi, boshqa odamni hayotidan, huquqqa xilof ravishda (Jinoyat kodeksi Maxsus qismi moddalari bilan taqiqlab qo'yilgan harakatlari bilan), aybli (qasddan yoki ehtiyotsizlikdan) mahrum etish*"dir.

"Odam o'ldirish jinoyati" tushunchasi haqidagi qarashlar turli xilligiga qaramasdan, mazmun

jiyatidan yakdillikka ega ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Nemis olimi F.Engels shunday yozgan edi: "Agar bir odam boshqasiga jismoniy zarar yetkazsa va bunday zarar jabrlanuvchining o'limini keltirib chiqarsa, biz buni odam o'ldirish deb ataymiz, agar qotil mazkur zarar odamni o'ldiradiganligini oldindan bilgan bo'lsa, biz uning harakatlari qasddan odam o'ldirish deb ataymiz» [8].

Nemis olimining mazkur fikridan ko'rinib turibdiki, qasddan odam o'ldirish, odam o'ldirish jinoyatining subyektiv tomonining ayb shakliga ko'ra bir ko'rinishidir. Ya'ni, qasddan odam o'ldirishda jinoyat subyeksi o'zining sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishiga va uning oqibatlariga qasd ko'rinishidagi ruhiy munosabatda bo'ladi. Shunday ekan, qasddan odam o'ldirish jinoyatiga berilgan ushbu ta'rifga qo'shilib bo'lmaydi.

Qasddan odam o'ldirish – bu qonunga xilof ravishda, qasddan boshqa kishini hayotidan mahrum qilishdir [9].

Agar, aybdor o'z harakatlarining natijasi jabrlanuvchining o'limi bo'lishini oldindan ko'ra bilsa va uning o'limi kelib chiqishini istagan bo'lsa (to'g'ri qasd) yoki o'limi kelib chiqishiga yo'l qo'ysa (egri qasd), bunday odam o'ldirish qasddan sodir etilgan bo'ladi.

O'zbekiston yuridik ensiklopediyasida ham qasddan odam o'ldirishga yuqoridagi ta'riflarga o'xshash ta'riflar beriladi, ya'ni qasddan odam o'ldirish – qonunga xilof ravishda boshqa kishini qasddan hayotdan mahrum qilish. Qasddan odam o'ldirishda aybdor o'z harakati oqibatida jabrlanuvchining hayotidan mahrum bo'lishiga ko'zi yetadi va uning o'lishini istaydi yoki jabrlanuvchining o'lishiga ongli ravishda yo'l qo'yadi [10].

Demak, qasddan odam o'ldirish to'g'ri qasddan yoki egri qasddan sodir etilishi mumkin.

Jinoyat kodeksi Maxsus qismi 97-moddasi-ning 1-qismida «oddiy» odam o'ldirganlik uchun, 2-qismida esa og'irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Tabiiyki, odam o'ldirish «oddiy» bo'lmaydi, «oddiy» so'zi bu yerda shartli ishlatiladi, albatta. Agar, jinoyat subyeksi tomonidan odam

o'ldirish uchun sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishda, odam o'ldirganlik uchun javobgarlikni og'irlashtiruvchi yoki yengillashtiruvchi holatlar mavjud bo'lmasa, u «oddiy» odam o'ldirish jinoyatini sodir etgan hisoblanadi va amaldagi Jinoyat kodeksining 97-moddasi 1-qismi bilan jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Jinoyat kodeksining 97-moddasi 1-qismiga oid kvalifikatsiya qilinadigan qasddan odam o'ldirishga o'ch olish maqsadida, rashk tufayli, tuzal-maydigan kasalni azobdan qutqarish maqsadida jabrlanuvchining iltimosiga ko'ra, mushtlashish vaqtida o'ldirish, bezorilik belgilari bo'lmasa, hasad, qo'rqqoqlik va boshqa o'zaro kelishmovchilik holatlarida yuz bergan odam o'ldirishlarni taalluqli deb topish zarur [11].

Har qanday holatda ham, odam o'ldirish bo'lganmi yoki yo'qmi degan savolga javob berish uchun, ushbu jinoyatning belgilarini aniqlash zarur. Shuning uchun ham odam o'ldirishni tavsiflaydigan belgilar tahlili jinoiy javobgarlik uchun qanday ahamiyatga ega bo'lsa, ushbu jinoyatning kvalifikatsiyasi uchun ham shunday ahamiyatga ega [12].

«Shaxsning hayotiga qarshi jinoyatlar qayta tiklab bo'lmaydigan, qoplanmaydigan oqibatlarni vujudga keltiradi, chunki shaxsning hayotini qaytarib bo'lmaydi» [13].

Ushbu turida qilmishning obyektiv tomoni shundan iboratki, aybdorning qasdi bir kishini hayotidan mahrum etishga qaratilgan bo'ladi, ammo aybdor qilmishni sodir etayotganida boshqa shaxslarning hayoti uchun xavf tug'iladi.

Jinoyatni boshqa shaxslarning hayoti uchun xavfli bo'lgan usulda qasddan odam o'ldirish deb kvalifikatsiya qilish uchun aybdorning shaxsni hayotdan mahrum qilish uchun qo'llayotgan usuli boshqa shaxslarning hayotiga xavf tug'dirishini anglaganini aniqlash lozim. Ko'pincha ushbu turda odam o'ldirish usuli jinoyat qurolining xususiyati bilan aniqlanadi.

Odam o'ldirishning obyektiv tomoni huquqqa xilof ravishda boshqa shaxsni hayotidan mahrum qilishdan iboratdir [14]. Agar boshqa shaxsni hayotidan mahrum qilish qonunga xilof bo'lmasa, u odam o'ldirish deb hisoblanishi mumkin emas.

Qasddan odam o'ldirish jinoyati moddiy tarkibli jinoyat bo'lganligi uchun, uning obyektiv tomoni o'z ichiga: ijtimoiy xavfli harakat yoki harakatsizlikni, ijtimoiy xavfli harakat (harakatsizlik) ning oqibatini va ijtimoiy xavfli qilmish bilan uning oqibati o'rtasidagi sababiy bog'lanishni oladi.

Hayotga qarshi qaratilgan jinoyatlar, xususan, qasddan odam o'ldirish jinoyati ham faol harakatlar bilan, ham harakatsizlik yo'li bilan sodir etilishi mumkin. Ko'pincha, odam o'ldirish, boshqa insonning hayoti uchun muhim bo'lgan organlarining funksiyalari yoxud anatomik butunligi buzilishiga qaratilgan harakatlar bilan sodir etiladi.

Qasddan odam o'ldirish jinoyatini sodir etishda ayblanuvchi o'zining mushak kuchlari (qo'l bilan bo'g'ish, qo'l va oyoqlar bilan zarbalar berish, balandga ko'tarib tashlash)ni ishlatadi yoki buning uchun qandaydir qurol yoki vositalar (pichoq, bolta yoki g'isht bilan o'ldirish, kuydirish, zaharlash, elektr toki bilan ta'sir ko'rsatish, o'ta sovuq yoki o'ta issiq yerda qoldirish, to'pponchadan otish)dan foydalanadi.

Amaliyotda qasddan odam o'ldirish jinoyati aksariyat hollarda jismoniy ta'sir orqali sodir etilishi kuzatiladi. Biroq, ba'zi hollarda ruhiy ta'sir etish yo'li bilan ham kelib chiqishi mumkin.

Agar shaxs, boshqa shaxsning yurak yoki yurak-qon tomiri tizimining kasalligini bilgan va uni o'ldirish maqsadi bilan, o'limini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan ruhiy jarohat (travma) bersa, unda bunday jinoiy harakat qasddan odam o'ldirish sifatida qaralmog'i lozim [15].

Ruhiy ta'sir boshqa ko'rinishlarda ham namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazishda ayblanuvchi insonni hayotidan mahrum etishga bevosita qandaydir kuch sarflamaydi, biroq jabrlanuvchiga shunday yo'sinda ta'sir etadiki, natijada jabrlanuvchi o'zini o'zi hayotdan mahrum etadi.

M.H.Rustambayevning fikricha, "Odam o'ldirish uchun sodir etiladigan harakat, albatta, huquqqa xilof bo'lishi lozim" [16].

Darhaqiqat, odam o'ldirish jinoyati g'ayrihuquqiy belgilarsiz sodir etilsa, mazkur jinoyatning tarkibi ham bo'lmaydi. Jinoyat tarkibi yo'q ekan ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxs ham

jinoiy javobgarlikka tortilmaydi. Bunday hollarda qilmishni jinoiyligini istisno etuvchi holat yuz bergan bo'ladi.

Odam o'ldirish jinoyatiga nisbatan qilmishni jinoiyligini istisno etadigan holatlarga: zaruriy mudofaa (JKning 37-moddasi) yoki oxirgi zarurat (JKning 38-moddasi) holatida; ijtimoiy xavfli jinoyat sodir etgan shaxsni ushlash (JKning 39-moddasi) yoxud buyruqni yoki boshqa tarzda vazifani bajarish (JKning 40-moddasi) chog'ida odam o'ldirish jinoyatlari kiradi.

Qasddan odam o'ldirish jinoyati obyektiv tomonining alomati sifatida jinoyatning sodir etish usulini belgilash mazkur jinoyatni kvalifikatsiya qilishda muhim ahamiyatga ega. Jinoyatni sodir etish usuli uning qanday sodir etilganligi, tartibi, uslubini ko'rsatadi. Jinoyatni sodir etish usuli qonunda muayyan jinoyatning zaruriy yoki tasnifiy belgisi sifatida ko'rsatilishi mumkin.

Xususan, qasddan odam o'ldirish jinoyatini quyidagi usulda sodir etish, javobgarlikni og'irlashtiruvchi holat sifatida qaraladi: a) boshqa shaxslarning hayoti uchun xavfli bo'lgan usulda; b) o'ta shafqatsizlik bilan odam o'ldirish. Jinoyat sodir etish usulini noto'g'ri aniqlash, muayyan jinoyatning zaruriy yoki tasnifiy belgisi bo'lsa, hukmni o'zgartirish uchun asos bo'ladi.

Qasddan odam o'ldirish jinoyati harakatsizlik bilan ham sodir etilishi mumkin. Bunda aybdor shaxs jabrlanuvchi haqida g'amxo'rlik qilish majburiyati bo'lgani holda, o'z majburiyatini bajarmaydi yoki jabrlanuvchining o'limi kelib chiqishini bartaraf eta oladigan aniq harakatlarni qilishi mumkin va lozim bo'lgan hollarda ularni amalga oshirmaydi. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, harakatsizlik uchun jinoiy javobgarlik, kelib chiqadigan o'limni bartaraf eta oladigan harakatlarni bajarish majburiyati yuklatilgan, muayyan doiradagi shaxslargina tortilishi mumkin.

Aybdorning o'limni bartaraf eta oladigan harakatlarini amalga oshirish majburiyati: qonundan; aybdorning xizmat mavqeyi yoki kasbiy majburiyatlari (qutqaruv xizmati xodimlari, shifokorlar)dan; jabrlanuvchiga bo'lgan shaxsiy munosabatlari (ota-onalar, er-xotinlar, farzandlar)dan; shartnoma bo'yicha majburiyatlar

(enagalik, kasalga qarab turish uchun taklif qilingan)dan; jabrlanuvchini hayot uchun xavfli ahvolga qo'ygan va uni qutqarish uchun ko'rilishi mumkin va lozim bo'lgan choralarni ko'rmagan aybdorning avvalgi faoliyatidan kelib chiqishi mumkin [17].

Demak, qasddan odam o'ldirish harakatsizlik yo'li bilan sodir etilganda aybdor o'z vazifasini yoki jabrlanuvchini saqlab qolish uchun bajarish imkoni bo'lgan harakatlarni amalga oshirmaydi.

Qasddan odam o'ldirish moddiy tarkibli jinoyat bo'lganligi uchun ham uni tugallangan deb topishda muayyan ijtimoiy xavfli oqibat, ya'ni jabrlanuvchining o'limi yuz berishi lozim. Ijtimoiy xavfli oqibat deyilganda, ijtimoiy xavfli harakat yoki harakatsizlik bilan tajovuz obyektiga – jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga yetkazilgan zarar tushuniladi.

Ma'lumki, qasddan odam o'ldirish jinoyatini sodir etishda jabrlanuvchining o'limidan tashqari, jabrlanuvchining yaqinlariga ma'naviy (ba'zida moddiy, masalan, agar jabrlanuvchi yagona boquvchi bo'lsa) zarar ham yetkaziladi. Biroq, jinoyat tarkibiga kiruvchi oqibatlar qatoriga faqatgina tajovuz obyektiga yetkazilgan zarar kiradi, biz ko'rib chiqayotgan jinoyatda esa jabrlanuvchining o'limi kiradi. Qolgan zararli oqibatlar esa jinoyat tarkibining tashqarisida qoladi. Qasddan odam o'ldirish jinoyatini sodir etishdan ko'zlangan maqsad – jabrlanuvchi o'limining yuz bermasligi, subyektni mazkur jinoyatni sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortishdan ozod etadi [18].

Biroq, bunday hollarda qasddan odam o'ldirishga tayyorgarlik ko'rish harakatlari yoki unga suiqasd qilish alomatlari aniqlansa, jinoyat subyekti qasddan odam o'ldirishga tayyorgarlik ko'rish yoki suiqasd qilganlik (JKning 25-moddasiga havola etib, 97-moddasi) uchun javobgarlikka tortiladi.

Harakat (harakatsizlik) bilan ijtimoiy xavfli oqibat o'rtasidagi sababiy bog'lanish – jinoyatning obyektiv tomonini ta'riflovchi alomatlaridan biri hisoblanadi.

Aybdor shaxsni tamom bo'lgan odam o'ldirish jinoyati uchun javobgarlikka tortishda, aybdorning

jinoiy harakatlari bilan kelib chiqqan o'lim o'rtasidagi sababiy bog'lanishni aniqlash lozim [19]. Aks holda, ya'ni aybdorning jinoiy harakatlari bilan kelib chiqqan o'lim o'rtasida sababiy bog'lanish mavjud bo'lmasa, subyektni jinoiy javobgarlikka tortish to'g'risida gap ham bo'lishi mumkin emas.

Ko'pchilik hollarda shaxsning harakatlari bilan kelib chiqqan oqibat o'rtasidagi sababiy bog'lanishni aniqlash qiyinchilik tug'dirmaydi, chunki u yaqqol ko'rinib turadi. Masalan, o'qotar qurollardan otish yo'li bilan odam o'ldirish yoki inson organizmining hayot uchun muhim qismini pichoq bilan yaralash. Ba'zi hollarda esa sababiy bog'lanishni aniqlash ish holatlari mukammal tahlil qilinishini talab etadi.

Odam o'ldirish jinoyat ishi bo'yicha sababiy bog'lanishni aniqlashda, quyidagilarni nazarda tutish muhimdir:

1) sababiy bog'lanish nafaqat jinoyatchining bevosita tana harakatlari bilan kelib chiqqan o'lim o'rtasidagi, balki qotil tomonidan o'zga insonning o'limini keltirib chiqarish uchun foydalanilgan turli xil mexanizmlar, tabiatning stixiyali kuchlari, hayvonlar kabilarning harakatlari bilan ham aniqlanadi;

2) subyektning harakatlari, faqat jabrlanuvchini hayotdan mahrum etishning zaruriy sharti, ya'ni ularning mavjud emasligi o'limni keltirib chiqarmaydigan bo'lsa, o'limining sababi deb topiladi;

3) shaxsning jinoiy natijaning zaruriy sharti bo'lgan harakatlari, faqat ular bilan tashqi jihatdan harakatlar bilan bog'liq bo'lgan tasodifiy mavjud holatlar oqibati emas, balki oqibat mazkur harakatlarning zarurati tufayli kelib chiqqan holdagina o'limning sababi deb hisoblanishi mumkin [20].

Boshqa biror jinoyatni yashirish yoki uning sodir etilishini osonlashtirish maqsadida odam o'ldirish jinoyatini jinoyatlar jami bo'yicha, ya'ni JKning 97-moddasi 2-qismi "o" bandi va tegishli jinoyat javobgarlik belgilangan modda bo'yicha kvalifikatsiya qilish zarur.

Harakatsizlikdan sodir qilinadigan jinoyatlarda sababiy bog'lanish jinoyat tarkibi obyektiv

tomonining zaruriy belgisi doirasiga kiradi. Harakatsizlikda sodir etilgan odam o'ldirish – shaxs o'z vazifasini yoki bajarish imkoni bo'lgan harakatni amalga oshirmaydi. Lekin, bunday holatda o'lim yuz bermasligi ham mumkin.

Ijtimoiy xavfli harakatsizlik yuz bergan jinoiy hodisa bilan uning bevosita sababi bo'lganligi uchun emas, balki jinoyat sodir etilishiga imkon beruvchi sharoitni yaratganligi uchun bog'lanadi. Shu o'rinda shaxsning harakatsizligi bilan kelib chiqqan zararli oqibatlar o'rtasida sababiy bog'lanishni aniqlashda, agar aybdor tegishli harakatni amalga oshirganida, jinoiy oqibatning kelib chiqishini bartaraf etgan bo'larmidi, degan savolni hal etish lozim.

Qasddan odam o'ldirish jinoyatini sodir etish quroli, vositasi, vaqti, joyi, vaziyati kabilar mazkur jinoyat obyektiv tomonining fakultativ belgilari hisoblanadi. Ularni o'rganish, jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini to'liq baholash, shuningdek, jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'ygan obyektiv shart-sharoitlarni aniqlash imkonini beradi.

Hayotga qarshi qaratilgan jinoyatlarda jabrlanuvchining hayotiga ta'sir etish shakliga ko'ra subyektning harakatlari turlicha bo'lishi mumkin, biroq ular (harakatlar)ning barchasi umumiy zararli oqibat, ya'ni jabrlanuvchining o'limi bilan birlashgandir.

Xorijiy mamlakatlarning jinoyat qonunlarida evtanaziya muammosi keng talqin qilinib, jabrlanuvchining zarar yetkazish uchun roziligi sifatida ko'rib chiqiladi. MDH mamlakatlarning JKda, avvalo, bunday rozilik qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holat sifatida belgilanmasligi kerak, degan yondashuv mustahkamlangan. Inson hayoti – eng oliy qadriyat, unga bo'lgan uzviy huquq konstitutsiyaviy normalarda mustahkamlangan. Oddiy odam o'ldirish ham, evtanaziya ham bu huquqni buzadi, ammo bu ikki qilmish o'rtasida ancha o'xshashliklar bilan birga, jiddiy farqlar mavjud. Jinoyat obekti sifatida yashash huquqi ham sifat, ham miqdor jihatdan baholanishi mumkin emas. Bu har bir insonning ijtimoiy o'rni, yoshi yoki sog'lig'i holatidan qat'i nazar, hayotni huquqiy himoya qilishning tengligi prinsipini belgilab beradi. Aynan jinoyat obektining

bir xil qadriyat sifatida baholanishi boshqa bir shaxsni yanglishish tufayli hayotidan mahrum qilish kvalifikatsiyaga sezilarli ta'sir ko'rsatmasligini tushuntiradi.

Jinoyat kodeksida ayrim toifadagi kishilarning hayotiga tajovuz qilganlik uchun javobgarlikni og'irlashtiradigan maxsus qoidalarining mavjudligi har bir inson hayotini teng himoya qilish tamoyilini rad etmaydi. Shunday qilib, odam o'ldirishning bevosita ob'yekti yashash huquqi bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlardir.

Evtanaziya bo'lsa, to'g'ridan-to'g'ri jinoyat ob'yekti sifatida yashash huquqini ikkala tomondan ham tushunish kerak, ya'ni ham tabiiy fiziologik jarayonlarning majmuasi sifatida, ham jamiyatda qonun bilan himoyalangan shaxsning mavjudligi imkoniyati. Ikkinchi tomondan, evtanaziya oddiy odam o'ldirish kabi turdosh va umumiy jinoyat ob'yektiga ega.

Jabrlanuvchining ixtiyoriy iltimosiga binoan amalga oshirilgan azob-uqubat chekayotgan og'ir xasta odamni qasddan o'ldirish alohida imtiyozli tarkib sifatida ajratilishi kerak, chunki bu xatti-harakatlar ob'yektiv va subyektiv tomondan farqlanadi, yengillashtiruvchi holatlarda sodir etiladi hamda oddiy odam o'ldirishga nisbatan yengilroq jazolanishi kerak. Qasddan odam o'ldirishning ijtimoiy xavflilik darajasini va jinoyatga tayyorgarlik ko'rganlik va unga suiqasd qilganlik uchun javobgarlik belgilashning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, odam o'ldirishga tayyorgarlik ko'rganlik va unga suiqasd qilganlik uchun jazo miqdorini tamom bo'lgan jinoyat uchun nazarda tutilgan jazoning eng kam chegarasi bilan cheklash to'g'risidagi qoidani JKga kiritish zarur, deb o'ylaymiz. Qonunda sud odam o'ldirishga suiqasd qilganlik uchun jazoning eng kam chegarasini ham kamaytiradi, degan qoidani mustahkamlash zarur. JKning 58-moddasida ishning o'ziga xos holatini hisobga olgan holda, og'irlashtiruvchi holatlarda odam o'ldirishga suiqasd qilganlik uchun eng maksimal jazo muddatini kamaytirish to'g'risidagi qoidalarining qo'llanilmasligiga oid qoida bekor qilinishi kerak.

Qasddan odam o'ldirish jinoyatining klassifikatsiyasi va nisbiy tushunchasini, subyektiga

ko'ra qasddan odam o'ldirishning javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarini, shuningdek inson hayotiga bo'lgan tajovuzlarga qarshi kurashning kriminologik choralarini o'rganish quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi:

1. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida "odam o'ldirish" tushunchasi umuman berilmagan. Bunda ushbu tushuncha umum qabul qilingan deb taxmin qilingan ko'rinadi. Bu qaror noto'g'ri, chunki "odam o'ldirish" tushunchasi tortishuvli masala hisoblanib, "o'g'rilik" tushunchasi singari umum qabul qilingandir. Lekin "o'g'rilik" tushunchasi Jinoyat kodeksida berilgan.

Odam o'ldirish jinoyati tarkibining murakkabligi shundaki, jinoyat qonunchiligida jinoyat masalasini diqqat bilan o'rganishga ehtiyoj seziladi.

"Odam o'ldirish" tushunchasini shunday shakllantirish kerakki, ushbu tushunchaga yaqin bo'lgan boshqa tushunchalardan ajralib turishi kerak. "Odam o'ldirish" tushunchasida ikkita narsaga e'tibor qaratish lozim: odam o'ldirishni cheklaydigan hayotdan mahrum qilishning boshqa holatlari bo'lgan huquqqa xiloflik hamda odam o'ldirishni cheklovchi o'lim sabablari huquqqa xilofligining boshqa holatlari.

Natijada *odam o'ldirish tushunchasi – bu boshqa insonning hayotini qasddan huquqqa xilof ravishda mahrum qilish*. Ta'kidlash kerakki, "odam o'ldirish" tushunchasi "hayotdan mahrum qilish" tushunchasidan farq qilib, har qanday hayotdan mahrum qilish huquqqa xilof bo'lmaydi va jinoiy javobgarlik belgilanmaydi.

Urushda yoki boshqa vaziyatlarda hayotdan mahrum qilish oxirgi zarurat yoki zaruriy mudofaa holatida sodir etilsa, odam o'ldirish huquqqa xilof hisoblanmaydi. Ehtiyotsizlik natijasida hayotdan mahrum qilish odam o'ldirish deb atalmay, bu termin faqat qilmish qasddan sodir etilganda ishlatiladi.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga yuqorida bayon etilgan "odam o'ldirish" tushunchasini kiritish maqsadga muvofiqdir.

2. Qonun chiqaruvchi, qasddan odam o'ldirish jinoyati uchun javobgarlikni ijtimoiy xavflilik

darajasidan qat'i nazar, aybni og'irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlarini inobatga olgan holda bir nechta tabaqalarga ajratadi.

Subyektiv belgilarga ko'ra qasddan odam o'ldirish jinoyatining turlarini ko'rib chiqayotib, quyidagi alohida belgi va xususiyatlarni aniqlash mumkin.

Tamagirlik niyatida qasddan odam o'ldirish (Jinoyat kodeksining 97- moddasi 2-qism "i" bandi) har xil naf olish yoki moddiy harakatlardan qutilish istagida o'ldirishdir. Ushbu jinoyatning kvalifikatsion belgisi odam o'ldirish motivi sifatida tamagirlik hisoblanadi.

Tamagirlik niyatida odam o'ldirishning shakli haqidagi masalaga kelganda, subyekt har doim to'g'ri qasd bilan harakat qiladi. Aybdor jabrlanuvchining hayotidan mahrum qilmasdan turib o'zining tamagirlik maqsadiga erisha olmasligini anglaydi. Lekin, ba'zi hollarda tamagirlik niyatida odam o'ldirish egri qasd bilan sodir etilishi mumkin bo'lib, bunda aybdor jabrlanuvchining o'limini xohlamaydi, lekin o'lim ro'y berib uning taqdiriga befarq bo'lishini anglaydi.

Boshqa odamning hayotiga tajovuz qasddan hamda ehtiyotsizlik orqasida sodir etilib, o'limning muqarrarligi to'g'ri qasdnining tarkibi hisoblanadi.

Qasdnining tarkibiga tushuncha berishda odam o'ldirilayotganda barcha holatlar inobatga olinib, ular aybdor va jabrlanuvchining jinoyat sodir qilinguncha o'zaro munosabatlari, jinoyat quroli, jarohatlarning joylanishi, aybdorning qilmishni sodir qilgandan keyingi harakati va boshqalar kiradi. Ushbu jinoyatni kvalifikatsiya qilishda qasddan odam o'ldirish jinoyati sodir etilayotganda motiv va maqsad inobatga olinadi.

3. JKning 97-moddasi 2-qismini *t) shaxsni o'g'irlab ketish yoki garovga olish bilan bog'liq holda qasddan odam o'ldirish*, degan band to'ldirishni taklif etamiz. Chunki sud amaliyotida shaxsni o'g'irlab ketish yoki garovga olish maqsadida qasddan odam o'ldirish ham JKning 164-moddasi va 97-moddasining birinchi qismi bilan jinoyatlar jami tariqasida kvalifikatsiya qilinmoqda.

Sud amaliyotidagi ushbu kamchilikning oldini olish, ushbu jinoyatni to'g'ri kvalifikatsiya qilish

maqsadida ushbu moddaning ikkinchi qismiga tegishli bandni kiritish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu bandga o'xshash holat Ozarbayjon Respublikasi JKning 120-moddasi, 120.2.9.-qismida, Moldova Respublikasi Jinoyat kodeksining 145-moddasi 2-qismi "f" bandi, Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 105-moddasi 2 qismi "v" bandi, Tojikiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 104-moddasi 2 qismi "g" bandi, Turkmaniston Respublikasi Jinoyat kodeksining 101-moddasi 2 qismi "v" bandida ham nazarda tutilgan.

4. Qasddan odam o'ldirish va xavf ostida qolishning qiyosiy tahlili shundan dalolat beradiki, qasddan odam o'ldirish ko'rinishidagi jinoiy harakatning huquqiy tabiati uni harakatsizlik orqali sodir etilishini istisno qiladi, chunki u boshqa shaxsning hayotini qasddan (ongli) qonunga xilof ravishda va qaytarib bo'lmaydigan tarzda mahrum qilishni nazarda tutadi, bu esa harakatsizlikning mohiyatiga to'g'ri kelmaydi.

Foydalanilgan manbalar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni.
2. Giyasov Sh.K. Hayotga qarshi jinoyatlarni ochish faoliyatida "qotillik" atamasidan foydalanish va uni tavsiflash masalasiga doir fikr-mulohazalar // O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining axborotnomasi. – 2015. – № 2. – B.48.
3. Rustambayev M.H. Jinoyat kodeksiga sharhlar. – Toshkent. "Yuridik publish", 2024. – B. 43.
4. Шаргородский М.Д. Ответственность за преступления против личности. – Ленинград, 1953. – С. 14.
5. Бородин С.В. Преступления против жизни. – Санкт-Петербург: "Юридический центр Пресс", 2003. – С. 21.
6. Рустамбаев М.Х. Преступления против личности. Ташкент. 1998. – С. 12.; Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 3. Maxsus qism. Shaxsga qarshi jinoyatlar. Tinchlik va xavfsizligiga qarshi jinoyatlar. Darslik. 2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan – T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. – 412 b.
7. Авхиа Ж. Борьба с преступлениями против жизни. – Москва: "Юридическая литература", 1997. – С. 16.
8. Загородников Н.И. Преступления против жизни по советскому уголовному праву. – М.: Госюриздат, 1991. – С. 22.
9. Бородин С.В. Преступления против жизни. – СПб.: Изд-во «Юр.центр Пресс», 2003. – 467 с. // Ф.Энгельс. Положение рабочего класса в Англии. К.Маркс и Ф.Энгельс. Соч., т. III, 388 с.
10. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 3. Maxsus qism. Shaxsga qarshi jinoyatlar. Tinchlik va xavfsizligiga qarshi jinoyatlar. Darslik. 2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan – T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. – 412 b.
11. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi. Mas'ul muharrir N.To'ychiyev. – T.: "Adolat", 2010. – B. 606.
12. Rustambayev M.H. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. 3-tom. Maxsus qism. OTM uchun darslik. "ILM ZIYO" nashriyot uyi. – Toshkent. 2011. – B.33.
13. Бородин С.В. Преступления против жизни. – СПб.: Изд-во «Юр.центр Пресс», 2003. – С.467.
14. Уголовное право России. Части общая и особенная. Учебник. Под. ред. д.ю.н., проф. А.И.Папова. – Москва: «Проспект», 2003. – С. 297.
15. Rustambayev M.H. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. 3-tom. Maxsus qism. OTM uchun darslik. – Toshkent: "ILM ZIYO" nashriyot uyi, 2011. – B.27.
16. Попов А.Н., Кондрашова Т.В. Проблемы уголовной ответственности за преступления против жизни, здоровья, половой свободы и половой неприкосновенности. – Екатеринбург, 2000. – С.25.
17. Рустамбаев М.Х.. Преступления против личности. – Ташкент. 1998. – С. 12.; Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 3. Maxsus qism. Shaxsga qarshi jinoyatlar. Tinchlik va xavfsizligiga qarshi jinoyatlar. Darslik. 2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan – T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. – 412 b.